

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

QO'L TO'PI SPORT TURIDAN MUSOBAQALARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TIZIMI

Nizomov Akmaljon Akramjon o'g'li

E-MAIL:nizomovakmaljon1995@gmail.com

Farg'onan davlat universiteti jismoniy tarbiya va sport fakulteti "sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi" o'qituvchisi

Annotatsiya: *Qo'l to'pi musobaqalari o'quv-mashg'ulot ishlarining asosiy qismini tashkil etadi. U shug'ullanuvchilarining mashg'ulotlarga qiziqishini oshiradi, mamlakatda qo'l to'pini ommaviy rivojlantirishga yordam beradi. Qo'l to'pichi o'yinlarda muntazam qatnashmay turib yuqori natijalarga erisha olmaydi. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va umuman, jamoaning jismoniy, texnik, taktik va axloqiy-irodaviy tayyoragarligi darajasini aniqlaydi, o'quv-mashg'ulotjarayonining ahvoli va yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Musobaqa natijalariga o'quvmashg'ulotishlarini yakunlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Musobaqalarni boshqarish, musobaqa turlari, musobaqalarni rejallashtirish.*

Аннотация: Соревнования по гандболу составляют основную часть учебно-тренировочной работы. Он повышает интерес занимающихся к занятиям, способствует массовому развитию гандбола на даче. Гандболист не может добиться высоких результатов без регулярного участия в играх. Соревнования определяют уровень физической, технической, тактической и морально-волевой подготовленности участников соревнований и коллектива в целом, позволяют определить состояние и направленность учебно-тренировочного процесса. Результаты соревнований служат средством завершения учебных занятий.

Ключевые слова: Управление соревнованиями, виды соревнований, планирование соревнований.

Annotation: *Handball competitions form a major part of the training and*

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

training work. It increases the interest of those involved in training, helping to promote the mass development of handball in the country. The handball player does not achieve high results without regular participation in the games. Competitions determine the level of physical, technical, tactical and moral-volitional training of the participants of the competition and the team as a whole, make it possible to determine the condition and direction of the training camp. Serves as a means of completing their training to the results of the competition.

Key words: Competition management, competition types, competition planning.

Kirish: Musobaqalar qa`tiylikni, g‘alabaga erishish yo‘lidagi iroda kuchini, jamoa, tuman, shahar, respublika, qolaversa, mamlakat oldidagi mas`uliyat hissini tarbiyalaydi. O‘yinchilarning emotsional keskinligi qo‘l to‘pichilarining ruhiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Musobaqalarni boshqarish

Musobaqalarni tayyorlash va o‘tkazishga umumiy rahbarlikni amalga oshiradigan tashkilot, Shuningdek, musobaqani o‘tkazish uchun aniq javobgar shaxsbo‘lishi, musobaqalar joyini tayyorlash, sportchi va hakamlarni kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirish, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatish, Shuningdek, madaniy tadbirlarni o‘tkazish uchun ham javobgar tayinlanishi kerak.

Musobaqa turlari

Oldiga qo‘yilgan vazifalariga qarab musobaqalarni asosiy va yordamchi musobaqalarga bo‘lish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan tasdiqlangan sport tasnifi talablariga muvofiq tashkil etiladigan hamda natijalarga ko‘ra g‘olib va champion degan nom beriladigan musobaqalar asosiy musobaqalarga kiradi.

Musobaqalarning asosiy turi – taqvim musobaqalari bo‘lib, ular sport tadbirlarining yagona taqvimiylar rejasida nazarda tutiladi va tasdiqlangan nizomga muvofiq ravishda o‘tkaziladi. Musobaqaning asosiy turlariga: birinchilik yoki

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

championatlar, kubok musobaqlari, saralash musobaqlari kiradi.

Birinchilik yoki championatlar - eng mas`uliyatli musobaqalar bo`lib, ularning natijalarga bo`yicha g`olib jamoalarga championlik unvoni beriladi. Musobaqlarni tashkil etishning bu turi jamoalar kuchini xolisona baholashga, olib borilayotgan o`quv-mashg`ulot ishining sifatini taqqoslashga imkon beradi.

Kubok musobaqalariga juda ko`p jamoalarni jalb etish mumkin va ular g`olibni qisqa muddatlarda aniqlash maqsadida o`tkaziladi. Kubok musobaqlari eng yaxshilarni izchillik bilan tanlab olish taomili bo`yicha o`tkaziladi.

Saralash musobaqlari musobaqaning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli jamoalarni aniqlash maqsadida o`tkaziladi.

Musobaqaning yordamchi turlariga quyidagilar kiradi: nazorat uchrashuvlari, o`rtoqlik uchrashuvlari, qisqartirilgan musobaqlar.

Nazorat uchrashuvlari jamoalarni bo`lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida o`tkaziladi.

O`rtoqlik uchrashuvlar o`quv-mashg`ulot maqsadlarida yoki an`anaviy musobaqlar rejasida o`tkaziladi.

Qisqartirilgan musobaqlar bir necha soat mobaynida o`tkaziladi. Ular odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

Musobaqlarni rejalashtirish

Qo`l to`pi musobaqalarini rejalashtirish markazlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. O`zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport ishlari vazirligi barcha idoralar va sport tashkilotlari bilan kelishib, musobaqalarning taqvim rejasini ishlab chiqadi.

O`zbekiston Respublikasi qo`l to`pi federatsiyasining viloyat, tuman va shahar musobaqlari yig`ma taqvim rejasini yuqori tashkilotlar tomonidan rejalashtirilgan musobaqlarni hisobga olgan holda tuzishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Bu tizimning asosiy maqsadi – musobaqlarni tashkil qilishda tartibni saqlash, ishtirokchilargaadolatli imkoniyat yaratish va sportning rivojlanishiga hissa

qo'shishdir. Tashkilotchilar va sportchilar uchun barcha qoidalar, rejalar va ehtiyyot choralari aniq va oshkora bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abduraxmonov,S.(2023).Gandbolchilarning sport tayyorgarligi tizimi. Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 195-197.
2. Abduraxmonov, S.(2023). Gandbol sport turini rivojlantirishning dolzarb masalalari. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(25),95-98.
3. Nizomov, A. (2024). Gamburga darvozabon o 'yinining tehnikasi. Research and Implementation, 440-444.
4. Nizomov, A. (2024). Umumiyoq o 'rta ta'limga maktablarida gandbolni o'rgatish hususiyatlari. Research and Implementation, 433-436.
5. Nizomov, A. (2024). Yosh qo 'l to 'pichilarni tanlab olish. Research and Implementation, 337-340.
6. Nizomov, A. (2024). Gandbol o 'yini tehnikasi va taktikasini rivojlantirishning umumiyoq tasnifi. Research and Implementation, 429-432.
7. Ahmadjonov, D. (2024, November). Yosh gandbolchilarni to 'pni otishga o'rgatish usullari. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
8. Ahmadjonov, D. (2024). Gandbol o 'yinining inson organizmiga foydali hususiyatlari. Research and Implementation, 352-355.
9. Ahmadjonov, D. (2024). Gamburga chidamlilik sifatlarini oshirish. Research and Implementation, 355-358